


Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:20 (67185)
2018-yil 14-may

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092



52th INTERNATIONAL MENDELEEV
CHEMISTRY OLYMPIAD
Minsk, Belarus, 23 - 28 April 2018

Bilimdon yoshlar Minskdan medallar shodasi bilan qaytdi

**Amerika – sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali.
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash'ali.**



O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «O'zbekiston» she'ridagi ushbu misralarni har gal o'qiganimizda, Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, al-Farg'oniy kabi buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosi ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu ulug' zotlarning dunyo ilm-fan tamadduniga qo'shgan munosib hissasi qalblarga iftixor tuyg'ularini jo etadi.

Quvonarlisi, yurtimizda ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor tufayli Siz aziz yoshlar barcha sohalar-da ajdodlarimizga munosib bo'lishga intilmoqdasiz. Qo'lga kiritayotgan yutuqlaringiz haqida har qancha faxrlanib so'zlasak, oz.

Xabaringiz bo'lsa, yaqinda Belarus poytaxti Minsk shahrida 52-Xalqaro Mendeleev olimpiadasi bo'lib o'tdi. Dunyoning 22 mamlakatidan yosh iqtidorli egalari qatnashgan nufuzli bellashuvlarda o'zbekistonlik o'quvchilar ham munosib ishtirok etib, yakunda 2 ta kumush va 4 bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Bu yutuqlarning qo'lga kiritilishida Toshkent davlat pediatriya instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi o'quvchilari – Jaloliddin Olovuddinov, Islombek Karimov, Ulug'bek Boirbekov va Dildora Hakimboyevalarning ham munosib hissasi bor. Bo'lajak shifokorlar mazkur olimpiadada jami 1 kumush va 3 bronza medaliga sazovor bo'lib, ilm yo'lidagi zahmatlar, tinimsiz izlanishlar, ustozlar bergan bilimlarni to'la oqladi.

– Ta'lim maskanimizda iqtidorli yoshlar juda ko'p, – deydi Toshkent davlat pediatriya instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi direktori Ortiqboy Eshonqulov. – Ana shunday

o'quvchilarimizdan 4 nafari xalqaro olimpiadada muvaffaqiyatli ishtirok etib, biz ustozlarni behad quvontirdi. O'ylaymanki, bu yoshlar kelajakda mamlakatimiz tibbiyoti rivojiga munosib hissa qo'shadigan malakali kadrlar bo'lib yetishadi.

G'oliblar safida o'tgan yili Qozog'istonning Astana shahrida tashkil etilgan 51-Xalqaro Mendeleev olimpiadasida bronza, bu yil esa kumush medalga sazovor bo'lgan litseyning 3-bosqich o'quvchisi Dildora Hakimboyeva ham bor. Tengdoshingiz safar haqida shunday deydi:

– Belorusdan bir olam taassurotlar bilan qaytdik. Ayniqsa, Minsk shahri

bo'ylab qilgan sayohatimiz unutilmas lahzalarga boy bo'ldi.

Olimpiadaga to'xtalsam, undagi har bir topshiriq va savollar xalqaro talablar asosida tuzilib, bu bizdan yuksak bilim va tafakkurni talab etdi. Quvonarlisi, o'zbekistonlik o'quvchilar dunyoning turli mamlakatlardan kelgan ilimga chanqoq tengdoshlaridan hech bir jabhada ortda qolmadi. Kelajakda yetuk bolalar shifokori bo'lib, yosh avlod kamolotiga munosib hissa qo'shaman.

O'zbek yoshlariga kelajakdagi nufuzli bellashuvlarda omad va zafarlar tilaymiz.

Sa'dullo TURSINOV

Qoraqalpog'istonlik o'quvchilar

INSHO YOZDI



Nukusda umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida «Men sevgan qahramon» mavzusidagi insholar tanlovining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichi ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Bellashuvda 70 nafarga yaqin o'quvchi o'z ijodiy ishlari bilan qatnashdi.

Yakunda Ozoda Rahmatullayeva, Gulbonu Abatboyeva, Gulzoda Yesbosinova hamda Gulsevar Qidirboyeva g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– Ushbu tanlov orqali ona tili fani bo'yicha olgan bilimlarimizni sinovdan o'tkazdik, – deydi Beruniy tumandagi 65-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Ozoda Rahmatullayeva. – Kelajakda filologiya sohasida yetuk olim bo'lishni maqsad qilganman. Bu yo'lda barcha mashaqqatlarni yengib o'tishga tayyorman.

«INSON – AZIZ, XOTIRA – MUQADDAS» shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi

«Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan yurtimiz bo'ylab turli tadbirlar o'tkazilmoqda.



Ushbu ayyom Samarqand viloyatining Tayloq tumanidagi 14-umumta'lim maktabida ham ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Bayram munosabati bilan maktab Yoshlar ittifoqi sardorlari tomonidan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat faxriylari, Afg'on urushi ishtirokchilari holiday xabar olinib, ularga bayram sovg'alari ulashildi.

Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari N. Jabborova, yoshlar yetakchisi X. Ahmedova va jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi F. Hamroyevlar tashabbusi bilan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan velomarafonda 8–9-sinf o'g'il-qizlari faol qatnashdi. Jumladan, 9-sinf o'quvchisi Sardor Yusupov 1-, 8-sinf o'quvchilari Abror Akmalov 2-, Diyor Tursunov esa 3-o'ringa savzor bo'ldi. Qiz bolalar orasida 8-sinf o'quvchilaridan Marjona Normahammadova 1-, Jasmina Orziqulova 2-, Nilufar Jasurovaga 3-o'rin nasib etdi.

Shuningdek, marhum ustoz Malohat Yunusova xotirasiga bag'ishlangan yugurish marafonida o'g'il bolalardan 6-sinf o'quvchisi Otabek Davronov 1-, 5-sinf o'quvchisi Mirjon Musayev 2-, 7-sinf o'quvchisi Davlat Amriddinov esa 3-o'rin egalladi. Qizlardan marraga 6-sinf o'quvchisi Farangiz Sharopova 1-, 8-sinf o'quvchilari Shahlo Xudoynozaro va 2-, Mehrangiz Amriddinova esa 3-bo'lib yetib keldi.

Bellashuv g'oliblari maktab ma'muriyati tomonidan munosib taqdirlandi.

O'z muxbirimiz

MEN HAM HARBIIY BO'LAMAN

Shahrimizda harbiy mashinalar ko'rgazmasi bo'layotgani haqida eshitib qoldim.



«Xotira va qadrlash kuni» munosabati bilan oyim va men ko'rgazma o'tayotgan joyga borganimizda, harbiy mashinalar hamda qurol-aslahalar namoyishi o'tayotgan ekan. U yerda harbiy libos kiyib, qo'shiq

kuylayotgan askarlarni ko'rib, ularga havasim ortdi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi vaqtida askarlarimizning g'alaba qozonishiga katta yordam bergan qurol-aslahalar bilan tanishib, o'zimni haqiqiy askardek his qildim. Harbiy libosdagi akalarim bilan birga esdalik uchun suratga tushdik. O'sha kundan boshlab, men ham kelgusida askar bo'lib, ona Vatanimizni xuddi bobokalonlarimiz singari himoya qilishni ko'nglimga tugib qo'ydim.

Sardorbek ABDURAIMOV,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
41-umumta'lim maktabining 3-«D» sinf o'quvchisi

Shavkat MIRZIYOYEV:
«Ibrat maktabini bitirgan yoshlar oliy o'quv yurtiga imtihonsiz kiradi».

ZAMONAVIIY MAKTAB – BOLALAR IXTIYORIDA

Bugun yurtimizning qay go'shasiga bormang, bunyodkorlik, obodonchilik ishlari ustidan chiqasiz. Bu xayrli harakatlar yosh-u keksani birdek xushnud etmoqda.

Yaqinda Prezidentimizning Namangan viloyatiga qilgan tashrifi arafasida To'raqo'rg'on tumanida Is'hoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internati foydalanishga topshirildi. Avvalo, Is'hoqxon Ibratning hayot yo'liga bir nazar solsak:

Ziyoli, ma'rifatparvar, dunyoviy bilimlarni chuqur o'rgangan Is'hoqxon Ibrat yettita tilni bilgan. «Olti tilli lug'at», «Xatlar majmui», «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat», «Zamon tarozusi» singari o'nlab ilmiy-tarixiy hamda

ma'rifiy asarlar yaratgan. U 1886-yilda zamonaviy maktab, 1907-yilda esa «Usuli savtiya» maktabini tashkil etib, qishloq bolalariga saboq bergan.

U ilk matbaachi sifatida 1908-yil Rossiyaning Orenburg shahridan litografik mashina sotib olib, uni Qo'qongacha poyezdda, u yerdan To'raqo'rg'onga qadar tuyalarda olib kelgan. Alloma tashkil qilgan «Is'hoqiya» bosmaxonasida o'sha zamonda turli risolalar, ilmiy-ma'rifiy kitoblari, milliy gazetalar chop etilgan.

– Maktab-internati Namangan davlat universiteti qoshida tashkil etilgan bo'lib, tahsilga universitetning professor o'qituvchilari, shuningdek, amerikalik ko'ngilli ingliz tili o'qituvchisi Elis Britenxonim jalb qilingan, – deydi bilim maskani direktori Zohid aka Sodiqov. – Eng zamonaviy texnik anjomlar

Mahmudjon HAYDARALIYEV, 9-sinf o'quvchisi:

– Ushbu maktab-internatning ochilishi men kabi ko'plab namanganlik yoshlari behad quvontirdi. Ayni paytda ustozim Hakimxo'ja Habibullayevdan ingliz va nemis tillarini mukammal o'rganyapman. To'raqo'rg'on

dan Is'hoqxon Ibratdek buyuk allomaning yetishib chiqqani, o'z davrida qi-yinchiliklarga qaramay, faqat olg'a intilgani har birimizga o'rnak. Barcha tengdoshlarim bilan buyuk alloma singari yurt fidoyisi bo'lishga va'da beramiz.

Muxlisa QO'CH-QORXO'JAYEVA, 9-sinf o'quvchisi:

– Bolaligidan xorij tillarini o'rganishga qiziqaman. Men tahsil olayotgan maktab-internati ana shu orzularimning

ushalishiga zamin yaratdi. Ustozlarim Shavkat G'afurovdan arab tili, Iroda Qosimovadan esa ingliz tili saboqlarini o'layapman. Bilim maskanimizdagi sharoitlar kishi havasini keltiradi. Bu g'amxo'rliklarga javoban faqat a'lo baholarga o'qishimiz kerak.

Agar sizda ham ushbu ta'lim maskanida tahsil olish istagi tug'ilgan bo'lsa, xorij tillarini mukammal o'rganing, tanlovlarda g'olib bo'ling, o'z ustingizda tinimsiz mashq qiling. Ana shunda barcha orzularingizga yetasiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



bilan jihozlangan maktab-internatda 80 nafar o'quvchi ingliz, nemis, fransuz, rus, arab, koreys, xitoy tillari filologiyasidan saboq olishadi. Har bir dars 10 kishidan iborat kichik guruhlarda tashkillashtirilgan bo'lib, bu o'quvchilarimizning yanada mukammal bilim olishlariga zamin yaratadi. Shuningdek, yigit-qizlar o'z ko'nikmalarini notiqlik san'ati va sahna mahorati, badiiy tarjima, gid-o'lkashunoslik, xattotlik, lirik lahzalar kabi to'garaklarda mustahkamlab boradilar. Bu ishlarga o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Musaxon Dadaxonov bosh bo'lmoqda.



«ONAJONIM TABIAT»

insholar va rasmlar tanloviga

**BIRGALIKDA
HARAKAT QILSAK...**

**«KISLOROD FABRIKASI» –
MUAMMONING YECHIMI**

**TABIATGA OZOR
BERMAYLIK!**

Odamzod bu dunyoga kelar ekan, avvalo, tabiatga, atrof-muhitga mehr hissini tuyadi. Yashil borliq o'z ne'matlari bilan bizni siylamasa nimalar bo'lishini bir tasavvur qiling-a... Toza havo bo'lmasa, insonlar orasida turli kasalliklar avj oladi.

Afsus, hozirda ayrim ekologik muammolar kishini jiddiy tashvishga solmoqda. Misol uchun, qishloqlarda chiqindi tashlash uchun maxsus joylar, idishlar yo'q. Ba'zan chiqindilarni ariqlarga oqizamiz. Bundan esa suvda yashovchi jonzorlar, insonlar kasallanadi. Shunday ekan, qishloqlarda ham xuddi shaharlardagi kabi chiqindi tashlanadigan idishlarni o'rnatish, nazorat qiluvchi mas'ullarni biriktirish kerak. Idishlarga chiqindilarni tashlashda ularni saralash ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, non mahsulotlari alohida, plastik idishlar va po'choqlarga ham alohida-alohida qutilar o'rnatish zarur. Shunda maxsus idishlar tezda yaroqsiz holga kelmaydi. Chiqindi tashish mashinalari ham uzoq yillar aholiga xizmat qiladi. Bu bilan atrof-muhit ozodaligini asrab-avaylagan bo'lamiz.

Ruxshona SIROJIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi
44-umumta'lim maktabining 5-sinf
o'quvchisi

Men ona Vatanimiz bag'ridagi shoda marjon, Sharq mash'ali, deya ulug'langan Buxoroi sharif farzandiman. To'rt fasl almashinadigan jannatmakon yurtimizning har bir viloyati o'ziga xos tabiati, hayvonot va o'simliklar dunyosiga ega. Men shunday yurtda yashayotganindan faxrlanaman.

Biroq har joyda bo'lgani kabi shahrimizdagi ba'zi ekologik muammolar meni tashvishga soladi. Viloyatimiz cho'l mintaqasida joylashganligi uchun ba'zan chang-to'zonli shamollarning esishi, avtomobillardan chiqadigan zararli gazlar, turli chiqindilar tabiat ifloslanishiga olib kelmoqda. Muammoning oldini olish uchun shahrimiz atrofida «kislrorod fabrikasi» vazifasini bajaruvchi mevali va manzarali daraxtlar, bog'-xiyobonlarni ko'paytirish zarur. Chiqindilar uchun esa maxsus qutilar o'rnatilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shuningdek, O'zbekiston ekologik harakatining «Tomchi suvda hayot jilvasi», «Tabiatni asraylik!» kabi aksiyalarini tez-tez o'tkazish lozim. Har zarra tuprog'ingni surtay ko'zingga, Har chashma, bulog'ing aziz o'zingga, Men seni asrayman, ishon so'zingga, Yashnatgum seni, Ona tabiat!

Dilshodbek KARIMOV,
Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi
17-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf
o'quvchisi

Ona tabiat go'zalligi, musaffo havo – ko'zimizni quvnatib, salomatligimizni mustahkamlaydi. Ammo biz insonlar ba'zan ana shu go'zallikka gard yuqtiramiz.

Masalan, men har kuni maktabga ketayotib, poytaxtimizning qoq markazida joylashgan «Xadra» maydoni yonidan o'taman. Afsuski, o'qishdan qaytayotganimda, ertalabki go'zal manzaradan asar ham qolmaydi. Arg'imchoq-u o'rindiqlar atrofida muzqaymoq qog'ozlari, yelim idish (baklashka)lar va pista po'choqlari sochilib yotadi. Onamning aytishicha, bitta plastik idish yoki sellofan xaltalarni yo'q bo'lishi uchun yuz yildan ortiq vaqt kerak bo'lar ekan.

Yaqinda oynayi jahon orqali O'zbekiston ekologik harakati faollarining ana shunday dam olish maskanlaridagi chiqindilarni yig'ib, tozalik kunlarini o'tkazishayotganini ko'rdim. Aslida, har birimiz tabiatga oqilona munosabatda bo'lishimiz zarur. Tabiatning ifloslanishi sog'lig'imizga ham jiddiy xavf tug'dirishni unutmashimiz lozim.

Ustozim Munavvar opa Samadova ekologiyani asrashimiz kerakligini ko'p bor uqtiradi. Men, albatta, ularning so'zlariga amal qilib, ona tabiatni sevib yashayman.

Madina TURSUNBOYEVA,
Toshkent shahri, Shayxontohur tumanidagi 59-DIUMning 3-«F»
sinf o'quvchisi



«Suv – hayot manbai»

Javohir ERKINOV,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 2-«D» sinf o'quvchisi



«Toza havoning qadriga yeting»

Xadicha YOQUBJONOVA,
Namangan viloyati, Namangan tumanidagi
18-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi



«Tabiat va biz»

Sayyora ESHBOYEVA,
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi
29-umumta'lim maktabining 7-sinf
o'quvchisi



«Aslidek asraylik»

Botir ATAKULOV,
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi
18-umumta'lim maktabining 2-«B» sinf
o'quvchisi



«Maktab bog'ida hashar»

Behruzbek AHMADALIYEV,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
27-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf
o'quvchisi



San'at TOHIROV,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
15-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf
o'quvchisi

G'azab ustida bergan har bir zarbamiz oxir-oqibat o'zimizga kelib tushadi.

U. PENN

KITOBBLAR KARVONI

Kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikrlashishning zavqi bo'lakcha. Zero, buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy yozganidek, kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbaidir.



Kuni kecha Jizzax viloyati, Armasoy tuman Axborot-resurs markazi va O'zMTDP Armasoy tuman Kengashi hamkorligida tumandagi umumta'lim maktablarida «Kitoblar karvoni» aksiyasi doirasida kitobxonlik targ'iboti o'tkazildi. 10 kunlik tadbir davomida o'quvchilar mingdan ortiq kitobni xarid qilib, maktab kutubxonalariga fondiga o'z hissasini qo'shdi.

– Xalqimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda bu kabi tadbirlarning o'tkazilishi beqiyos ahamiyatga ega, – deydi tuman ARM rahbari Zulfiya Qo'ziboyeva. – Qolaversa, bunday xayrli loyihalarni davlatimiz tomonidan adabiyotni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor va erishilayotgan natijalarni keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qiladi.

Tadbir doirasida tashkillashtirilgan «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi» ko'rik-tanlovida 5-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Nafisa Mardiyeva, «Kitobxon oila» ko'rik-tanlovida Usmonovlar oilasi hamda kutubxonachilar o'rtasida o'tkazilgan «Kitobxon maktab» ko'rik-tanlovida 11-umumta'lim maktabining kutubxonachisi Ozoda Boqiyeva g'olib bo'ldi.

G'oliblar diplom, faxriy yorliq hamda eng sara kitoblar to'plami bilan taqdirlandi.

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 237-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf rahbari Dildora opa Mirzaahmedova darslarda o'quvchilarga doimo kattalarni hurmat qilish va ularni qadrlash lozimligini uqtiradi.

BAXTIYOR, HUR ZAMONNING BAXTIYOR BOLASIMIZ...

Bugungi tadbirda esa o'quvchilar bu mavzuga yana bir bor e'tibor qaratib, xotira va qadrlash borasida nimalarni o'rganganlarini namoyish etdi. Qolaversa, buva va buvjonlar taklif qilingan bayramda ularga o'z mehr va ehtiromlarini izhor qilishdi.

Dastlab, o'quvchilar mavzuga oid she'rlar aytishdi. So'ng, xotira kuniga atab kichik sahna ko'rinishi namoyish etildi. Tadbirda Shahrizoda Azimova, Zahro G'ofurova, Islom Isayev, Jasur Rixsio'jayev kabi o'quvchilar faol ishtirok etdi. Musiqiy chiqishda o'g'il-qizlar jo'r ovozdagi qo'shiq kuyladi...



*Shu aziz yurt-chamanning,
Gulg'uncha, lolasimiz.
Baxtiyor, hur zamonning,
Baxtiyor bolasimiz...*

Shundan so'ng, navbat tadbir mehmoni, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, bolalarning sevimli shoirasi Umida Abdiazimovaga berildi. Shoira o'z bolaligi va otasidan eshitgan urush xotiralari haqida so'zlab berar ekan, o'sha davr voqealari barchaning ko'z o'ngida jonlandi.

Eng quvonchli va hayajonli lahzalarda bolajonlar buva-buvilariga atalgan sovg'alarini tuhfa etishdi.

Sayyora QODIROVA

O'ZIMIZ HAQIMIZDA FIKRLASHAMIZ

Aziz o'quvchim!

Sizga o'zingiz haqingizda o'ylash, qayg'urish kerakligi biroz g'alati tuyulyaptimi? Odatda, sizning yoshingizdagi bolalar haqida ko'proq ota-onasi, qolaversa, ustozlari o'ylashadi. O'shalar yurish-turishingiz, kiyinishingiz, o'qishingiz, atrofingizdagilar bilan muomala-munosabatingizni nazorat qilishadi. Lekin aslini olib qaraganda, har kim o'z taqdirining qahramoni. Ya'ni, kelajakda hayot tarzingiz qanday bo'ladi, qiziqishlaringizni qaysi tomonga qanday yo'naltirasiz, kimlar bilan do'st bo'lasiz tarzidagi qator savollarga, avvalo, o'zingizda, o'z qalbingizda javob bo'lishi kerak. Shunday ekan, keling, ushbu mavzuda o'zaro fikr almashamiz.

Dastavval, askariyat bolalarni ko'pincha no-to'g'ri yo'llarga boshlaydigan «qasos, o'ch» tuyg'usi haqida gaplashaylik. Gaplarimiz hayotga yaqin, tushunarli bo'lishi uchun uni voqealar bilan boyitamiz.

...Shahardagi ko'p qavatli uylarning birida eri vafot etgan, to'rt nafar farzandi bilan qolgan bir ayol qiynalibroq yashardi. Uning ro'parasidagi «dom»ning birinchi qavatini ishbilarmon, o'ziga to'q xonadon egallab olgan edi. O'rik andi rang olgan payti bola emasmi, haligi ayolning kichikroq farzandlari badavlat oilaning kaft-day tomorqasidan ko'cha yuziga egilgan daraxtning shoxini qayirib, hali pishmagan dovuchchani terib, cho'ntaklariga sola boshlaydi. Shunda derazadan qarab turgan xonadon sohibasi:

– Qani, bu yerdan tuyoqlaringni shiqillatib qolinglar! Bu och bolalarning dastidan o'rik pishib ham ulgurmaydi, – deydi. Bu gapni sal narida ukalarini chaqirgani kelgan o'smir aka ham eshitadi va:



QASOS

– Kim och? Qani, bu yoqqa chiq! – deya ayolga «san»sirab dag'dag'a qiladi. Ikki orada janjal-to'polon boshlanib ketadi. Qo'shnilar ularni «hay-hay»lab zo'rg'a ajratib qo'yishadi. Akbar (o'smir bolaning ismi) o'sha kuni yig'lab:

– Men hali unga ochlar kim ekanligini ko'rsatib qo'yaman! – deydi va yillar davomida boylikka intiladi. Va yigit yoshidan o'tib, o'rta yasharga yetganida, bu niyatiga yetadi. Boyligidan ehsos qilmaydi, savob uchun ajratmaydi. Faqat boyib, bir paytlar «ochlar» deya uni kamsitib, hamiyatiga tekkan ayoldan qasos olishni, uni pushaymon qilishni o'ylaydi. Axtarib yurib eski qo'shni (ular ancha

oldin «dom»dan ko'chib ketishgan bo'ladi)ni topib, ro'parasidagi hovlini sotib oladi, hashamatli qilib ta'mirlaydi. «Uy to'y»ga aytgani sobiq qo'shninikiga Akbarning

o'zi kiradi. Ammo baxtga qarshi bir paytlar uni haqorat qilgan ayol-kampiring ko'zi ko'rmas, qulog'i ham eshitmas ekan...

Boyligini hatto o'z aka-singillaridan ham qizg'anib, bemor onasini davolatgani ham og'rinib, qasos uchungina yashagan Akbarning alami ichida qolibdi... Olinmagan qasos uning ichini kuydirib, kul qilibdi...

Qissadan hissa shuki, yosh do'stlarim, sizni kimdir ranjitsa, o'zingizni qasos, o'ch uchun chog'lamang. Axir ota-bobolarimiz bejizga «Qasos bandasining ishi emas», deyishmaydi. Ko'ksingizni paypaslab ko'ring, agar qachondir, qayerdadir shunday yonuvchi, yondiruvchi hissiyot ilashgan bo'lsa, chiqarib tashlang, o'zingizni bu hissiyotdan ozod qiling... Ana shunda ichingizdagi kuch-quvvat yaxshi maqsadlarga yo'naladi.

**Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi**

BILIMDONLAR BAHSI

Bilimdon va qobiliyatli o'quvchilarni aniqlashda umumta'lim fanlari bo'yicha o'tkaziladigan Fan olimpiadasi va «Bilimlar bellashuvi»ning o'рни katta.

Aprel-oyining 27–28-kunlari Namangan shahrining 52-umumta'lim maktabida «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Viloyatdagi eng bilimdon o'quvchilarni jamlagan mazkur sinovda Pop tumanidagi 11-DIMdan sakkiz nafar o'quvchi, jumladan, 7-sinf o'quvchilaridan Bekmurod To'rabekov ona tili, Javlon Shoxanov matematika, Jasmina Yandasheva rus tili, biologiyadan Anvar Abduxoliqov faol ishtirok etdi.

«Bilimlar bellashuvi»da belgilangan Nizom talablari, adolat tamoyillariga rioya etilishiga jiddiy e'tibor qaratildi. Tajribali o'qituvchilardan tashkil topgan hay'at a'zolari o'quvchilar bilimni halol va xolis baholanishini nazorat qilib bordi.

Sinov yakuniga yetdi. Shahzoda Yo'ldoshaliyeva biologiya fanidan 1-o'rinni, Bekmurod To'rabekov ona tili fanidan 2-o'rinni egalladi.

Siz aziz bolajonlar raqs tushib, qo'shiq aytgan sahna gul-u gulzorga o'xshaydi. Balki shu sabab bolalar va yoshlar ishtirokidagi xalqaro ko'rik-tanlov festivali «Sharq atirguli» deb nom olgandir.

«SHARQ ATIRGULI» KASHF ETGAN IQTIDORLAR

O'zbekiston Madaniyat vazirligi tasarrufidagi «Sharq atirguli» bolalar ijod uyi hamda qator tashkilotlar hamkorligida tashkillashtirilgan festivalda Qozog'iston, Rossiya, Turkiya, Bolgariya, Chexiya, Fransiya kabi davlatlardan mingga yaqin yoshlar ishtirok etdi. Ular vokal, xoreografiya, an'anaviy estrada ijrochiligi yo'nalishlari bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish qildi. Shuningdek, ishtirokchilar poytaxtimiz bo'yab sayohatga chiqishdi.

– Festival bahona go'zal O'zbekistonga tashrif buyurganimdan xursandman. Men buyuk Amir Temur xiyobonida, Chorsu bozorida bo'ldim. O'zbek taomlari va shirinliklari menga juda yoqdi. Ko'rik-tanlovda pomircha raqs ijro etdim. Shuningdek, tengdoshlarimning turli chiqishlarini miriqib tomosha qildim, – deydi Tojikis-

tonning Xo'jand shahridan kelgan go'zal ishtirokchi qiz Valizade Sanifamox.

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahridagi 2-bolalar musiqa maktabi o'quvchisi Muharram Mahmudova ham tanlovdan bir alam taassurot oldi:

– Ustozim Farida opa Boboqulova boshchiligida turli ko'rik-tanlovlarda ishtirok etganman, ammo bugungi ajoyib festival orqali ko'plab xorijlik do'stlar orttirdim. Boshqa xalqlarning musiqa san'ati bilan yaqindan tanishdim. Qolaversa, shahar bo'yab qilgan sayohatimiz unutilmas voqealarga boy bo'ldi. Menga, ayniqsa, Toshkent metropoliteni juda yoqdi.

Festival davomida yosh iqtidor egalarining, takrorlanmas ijrolari barchani hayratlantirdi. Masalan, «Ovreliya» guruhi a'zolari «Laylaklar» raqsini ijro etishganida, oppoq libosli qizlarning nafis harakatlari tufayli ko'z oldimizga o'sha oqqushlar keldi. Dushanbelik Lola Qosimova esa o'z raqsida zilol suv obrazini yaratdi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu festival ko'plab yosh iste'dodlarni kashf etdi.

O'z muxbirimiz



Lesson 20

LEARNING GRAMMAR

Root is a word stands on its own as a word.

Prefixes are often used to give adjectives a negative meaning.

Happy – unhappy – baxtli – baxtsiz.

Possible – impossible – bo'lishi mumkin – bo'lishi mumkin emas.

Correct – incorrect – to'g'ri – noto'g'ri.

Prefix «in» is used before some words beginning with – «in» or «p» possible – impossible; Wow! Snow falling in red colour (x)

The Earth goes round the Sun (✓)

Prefix «ir» is used some words with beginning with «r» responsible – irresponsible.

«Dis» – used before some adjectives honest – dishonest.

Suffix. A suffix is something added at the end of a word and changes the grammatical function. For example the verb write + er = writer some suffixes given to you «-able», «-ly», «-fully» comfortable, regularly, confidently, respectfully.

Dis-, -in, mis-, re-, un-, under-read the sentences and put suitable answer.

1. I can't believe it! His story is ___believable!
2. No, that answer is ___correct. It is wrong.
3. I saw Alijon just a moment ago, but now I can't find him. It seems he ___appeared!
4. I'm sorry, I didn't hear you correctly. I ___understood you.
5. No your answer is ___correct. It is wrong.

Ma'mura G'ULOMOVA

USEFUL ENGLISH

There are given some useful information that you can use those words in your IELTS writing tips.

STATING OPINIONS	GIVING EXAMPLES
According to me... – Menimcha...	For example... – Masalan...
I think... – O'ylaymanki...	Namely... – Ya'ni...
I believe... – Ishonamanki...	To illustrate – Misol keltirmoq.
I realize... – Tushunganimdek...	In other words... – Boshqacha qilib aytganda...
In my opinion... – Mening fikrimcha...	Like – Kabi...
I imagine... – Tasavvur qilamanki...	As – Qaysiki...
I understand – Angladim	such as – Shuningdek...
In my view... – Mening o'ylashimcha...	For instance – Namuna...

Dinora ABDULLAJONOVA

BOSHLANG'ICH TEST

1. «Janjallashmoq» so'zining to'g'ri tarjimasini toping:
a) Have a quarrel; b) Have a walk; c) Have a question.
2. «Qirolicha» so'zining inglizcha tarjimasini aniqlang:
a) Question; b) Quin; c) Queen.
3. Ingliz tilida nechta birlikdagi shaxs shakllari bor va ular qaysilar?
a) 2 ta: I, you; b) 3 ta: I, he, it; c) 6 ta: I, you, he (she, it).
4. Ingliz tilida ko'rsatish olmoshlarini to'g'ri ko'rsating:
a) That, those; b) This, these; c) a va b javoblari to'g'ri.
5. Ingliz tilidagi «Soyabon» so'zini to'g'ri ko'rsating:
a) Ambrella; b) Autumn; c) Umbrella.

Dilnoza TO'RAQULOVA, the teacher of school №11 in Khatirchi district Navoi region

Mehnat qilsang, ko'ksing tog',
Hurmat qilsang, diling bog'.

Mahmud TO'YCHIYEV

HARAKATDA – BARAKAT

Yalqovlik yomon odat,
O'ta xavfli dard, kasal.
Kasalni tuzatmasang,
Bir kun qiladi o'sal.

Bundaylarni odamlar,
Deyishadi: «Dangasa».
Doim qolar uyatga,
Qilgin bundan xulosa.

Bu kasallik sababin,
Aniqlab topish darkor.
Taklif etilsin tezda,
Zo'r olim-u shifokor.

Ishga kirishsin darrov,
Manman degan ruhshunos.
Kompyuterda tekshirib,
Tashxis qo'ysin ro'yi-rost.

«Bu kasal yuqumli», deb,
Barcha ogoh etilsin.
Karantin taqiq qo'yib,
Yo'llari berkitilsin.

Bo'lmasa-chi, bu illat,
Tarqab ketar har yonga.
Xuddi yovuz mahluqdek,
Chang solar shirin jonga.

Olim, tabib, ruhshunos,
To'rt tomonga chopishdi.
Aniqlashib sababin,
Davosini topishdi.

Qancha xavfli bo'lmasin,
Yalqovlikning balosi.
O'zimizda ekan-ku,
Bu kasalning davosi.

Sport bilan do'st bo'lsang,
Chiniqtirib badanni.
Har qandayin illatdan,
Xalos etarkan tanni.

O'qish, mehnat, izlanish,
Aqlni charxlar har vaqt.
Yurakda qaynab jo'shar,
Shijoat-u kuch-g'ayrat.

Xulosa bo'ldi shunday:
«Eng zo'r davo – harakat».
Axir bejiz aytilmas –
Harakatda – barakat!



ASKAR AKALAR

Omon bo'ling, askar akalar,
Yurt sarhadin qo'riqlab turing.
Bizga kerak sizdayin mardlar,
Tinchligimiz bog'ini quring.

Sizlar hushyor
tursangiz doim,
Dushman ko'zi
yoshga to'ladi.
O'zbekiston degan
ona yurt,
Kundan kunga
obod bo'ladi.

Jamila MANSUROVA,
Toshkent viloyati,
Bekobod tumanidagi
37-umumta'lim
maktabining
5-sinf o'quvchisi

O'ZBEKISTONIM

Osmoningda kulsin doimo quyosh,
Bundan zavqqa to'lsin barcha keksa-yosh,
Oltin tuprog'ingga qo'yib asta bosh,
O'zingdan aylanay, O'zbekistonim!

Senga sodiqdirman, bolam, deb ata,
Qo'shiq, kuyim, she'rim, nolam, deb ata,
G'oyibona aytgan menga qarata,
So'zingdan aylanay, O'zbekistonim!

O'zing onamizsan bizning mehribon,
Qadrli, suyukli, aziz, jonajon,
Seni yaxshi ko'rgan qalbi pok o'g'lon,
Qizingdan aylanay, O'zbekistonim!

Bog'laring yam-yashil, hamma yoq ko'klam,
Doimo navqiron, xushqomat, o'ktam,
Chin ona misoli go'zal va ko'rkam,
Chiroyingdan aylanay, O'zbekistonim!

Ahrorjon TO'XTASINOV,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
15-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf
o'quvchisi

Tong
yulduzi



Mubinaxon eng
go'zal qizcha,
Sho'x-u quvnoq,
aqli buncha.
Qalbi samolarday
beg'ubor,
Bolalik bog'ida
eng nafis g'unchal!

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Bilasanmi, nabiraginam, bu dunyoda juda ko'p narsalarni anglash va tagiga yetish mumkindir-u, lekin inson zotini anglash qiyin-da. Xayolimda odamlar bu dunyoga faqat bir-birlarini o'rganish, bilish uchun keladigandek. Bolalar o'rtoqlarini, qo'shnilar yon qo'shnilarini va hokazo... Chunki odamlar yolg'iz yashay olmaydilar-da. Birga yashash uchun esa... Mana, o'zingni ol. Maktabda sinfboshisan. Tashvishing o'zingga yetarli. O'qituvchingni, o'rtoqlaringni ishonchini oqlashing kerak. Senga qol-sa sinfdagi hamma bolalar birdaniga a'lochi bo'lib qolsa. Lekin hayotda hech qachon unday bo'lmaydi. Hammaning iqtidori har xil. A'lochi qilaman, deb o'rtoqlaringni qaytaga ilmdan bezdirib qo'yishing mumkin. Ular senga o'xshab grammatika qoidalarini-yu, matematika formulalarini sharillatib yodlay olmaydilar. Lekin boshqa afzallik tomonlari bo'lishi mumkin. Misol uchun, men ham maktabda o'qiganman. Bitta o'rtoq'imiz bor edi. «Meni qiynayvermanglar, baribir a'lochi bo'lolmayman», derdi. Lekin o'sha o'rtoq'imizga tez-tez ishimiz tushib turardi. U paytlarda maktablarda hozirgidek chiroyli stol-stollar qayda, parta deganining oshiq-moshiqlari chiqib, oyoqlari qiysayib ketaverardi. O'rtoq'imiz ularni binoyidek qilib, tuzatib qo'yardi. Otasi duradgor edi-da. O'g'liga o'tgan. Yana bittasi bor

edi, usiz devoriy gazeta chiqara olmasdik. Rasmlarni shunaqangi qoyillatib chizib qo'yardiki... Bir o'rtoq'imizning otasi sartaresh edi. Kasbimni o'rgan, deb o'g'liga asboblar



Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist

ODAMNI ANGLASH

olib bergan edi. Ertaga maktabga komissiya keladi, desa undan yaxshi bola bo'lmay qolardi. Sochimizni tekindan tekin bir chiroyli qilib qo'yardi. Bittasi nuqul matematikadan «2» olardi. Lekin shaxmat o'yinida matematika o'qituvchimizni ham yutardi. Alamini oldi, deb ichimizda mazza qilib kulardik. Bunaqa qobiliyatlar «Maktabning faxriman», deb yurgan a'lochilarimizda yo'q edi.

Aytmoqchimanki, o'rtoqlaringni hammasiga ham «A'lochi bo'lasan», degan talabni qo'yma. Ulardan boshqalarda yo'q qobiliyatni qidir. Ustun tomonlarini topib, namoyish qil. Bu ishlarimga erdang hayotda senga juda ham asqotadi, bolam.

(Davomi bor)

Sardor, Sobir, Azamat, Dilshod – sinfdoshlar. Ular yuqori sinfda o'qiydi. Sardor hech kimga qo'shilmaydi, o'rtoqlaridan ajralib yuradi. Azamatning aytishicha, u doimo sinfdoshlarini xafa qilarmush. Ular yonma-yan qo'shni bo'lsa-da, hech birga yurmaydi.

Bahor kunlari edi. Daraxtlar oppoq gullarga burkangan. May-salardagi shudring quyoshda tovlanib, ko'zni qamashtiradi. Azamat erta tong turib, yuz-qo'lini yuvib, nonushta qilish uchun dasturxon atrofiga o'tirdi. Dadasi non ushatayotib, asta gap boshladi:

– O'g'lim, bugun tomorqa ishlarida menga biroz yordam bersang bo'lardi...

Azamat dadasining gapini kutib turganday, birdan

H A S H A R

(Hikoya)



yuziga tabassum yugurdi. Chunki anchadan beri do'stlari bilan hashar uyushtirishni rejalashtirib yurgandi-da.

– Xo'p bo'ladi! Do'stlarim ham kelsa maylimi? – dedi u.

– Mayli, kela qolsin, – dedi dadasi.

Azamat do'stlari Sobir va Dilshod bilan hasharni boshlab yubordi. Ish payti o'rtoqlari «Nega Sardorni chaqirmading?» deb so'rashdi.

Azamat: «Chaqirganim bilan baribir kelmaydi», dedi xo'rsinib.

Ularning gap-so'zini devor ortida Sardor

eshitib turardi. Chunki u ham o'z tomorqasida yer chopayotgandi-da. O'g'lining bir o'zi ishlayotganini ko'rib, onasi, «Do'stlaring bilan hasharga chiqma-

dingmi?» deya so'radi.

– Men o'z tomorqamni chopishim kerak, ularning keragi yo'q, – dedi Sardor jahli bilan. Onasi o'g'lining so'zlaridan biroz xafa bo'ldi.

Azamat esa do'stlari bilan tushlikkacha barcha ishlarni bitirib, oyisi tayyorlagan palovni uchovlon mazza qilib yeyishdi. So'ng, ko'chaga chiqib, koptok o'ynashdi.

Kun botdi. G'ira-shirada tomorqadan belini ushlab Sardor chiqib keldi. Oyisi uning ahvolini ko'rib, «Voy bolam-ey, do'stlaring bilan kelishib ishlaganingda edi, bunday hormagan bo'larding», dedi achinib.

Sardor belining og'rig'idan yuzini burishtirganicha o'zini divanga otdi. Ovqatini ham yemay, uxlab qoldi. Oyisi uning bu holini ko'rib, «Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar», deya pichirladi.

Nafisa TOSHPOLATOVA,
Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi
17-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

Sport insonga jismoniy kuch-quvvat va ruhiy barkamollik baxsh etadi, uning matonatli, jasur bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratadi.

MARG'ILONLIK CHEMPION

Marg'ilon shahridagi 2-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Abdurahmon Anvarjonov ham sportni jon-u dilidan sevib, yuksak cho'qqilarni zabt etishni maqsad qilgan. U 2-Bolalar va o'smirlar sport maktabida dzyudo bilan shug'ullanib, bir necha bor respublika va viloyat miqyosidagi musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Maktabda ham a'lo baholarga o'qiyotgan Abdurahmon fan olimpiadasining shahar bosqichida biologiya fanidan 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Biz yosh iste'dod egasining kelajakda mamlakatimizning eng ko'zga ko'ringan sport ustasi bo'lib yetishishiga tilakdoshmiz.

Muhammadjon MAHMUDOV

MAKTAB TO'GARAKLARIDA...

Maktabimizda iste'dodli yoshlar juda ko'p. Ularning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazish maqsadida ta'lim maskanida turli sport to'garaklari tashkil etilgan. To'garak a'zolari orasidan eng kuchlilari saralanib, maktab sport jamoalari shakllantirilgan.

Yaqinda qo'l to'pi jamoasi Buxoro viloyati Olimpiya zaxiralari kollejida bo'lib o'tgan «Umid nihollari» sport musobaqasining viloyat bosqichida ishtirok etib, ikkinchi bor viloyat chempionligini qo'lga kiritdi. Bunda jamoa murabbiyi M. Haydarovning hissasi katta.

Stol tennis bo'yicha qizlar jamoasi vakillari – Muxlisa Jo'raqulova, Madina Sattorova viloyat birinchiligi g'olibi bo'ldi. Maktabimizning badminton jamoasi esa 3-o'rinni egallab, maktabimiz hisobiga yana bir yutuqni muhrladi.

Durdona ISMOILOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
28-umumta'lim maktabining Yoshlar ittifoqi sardori

MUAYTAYCHILAR G'ALABASI

Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida 2002–2003-yillarda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtasida muaytay bo'yicha O'zbekiston kubogi bo'lib o'tdi.



Mazkur musobaqada Buxoro viloyati, Olot tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchilaridan Dilshoda Sodiqova 45 kg vazn toifasida 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, Gulsun Sanayeva 51 kg va Javohir Jo'rayev 71 kg vazn toifasida oltin medalni qo'lga kiritdi. Asilbek Xudoyberdiyev, Nargiza Oripova, Rohat ibodova, Mashhura Yangiyeva va Bonu Qamarova o'z vazn toifasida 2- va 3-o'rinlarni zabt etishdi.


– Muaytay – Buxoro viloyatida eng ommalashgan sport turi sanaladi. Viloyatda mamlakat va xalqaro musobaqalar chempionlari ko'plab topiladi, – deydi murabbiy Shohzamon Jo'rayev.

Buxorolik sportchilarni yangi g'alabalari bilan qutlaymiz.

Shohruh MUSAYEV

Bugun Jizzax yoshlarining sportga bo'lgan ishtiyoqi, intilishi o'zgacha. Ular har bir mashg'ulotdan yangi ruh olmoqda, mahoratlarini oshirmoqda. Yuraklaridagi ertangi kunga bo'lgan ishonch va sabot katta marralarga yetaklayotganligini erishayotgan yutuqlaridan anglash qiyin emas.

SPORTIMIZ UMIDLARI



Jizzax shahridagi «So'g'diyona» sport majmuasida mashg'ulot o'tayotgan o'smir yigit-qizlar ana shunday ezgu niyatlar bilan yashayotgan yoshlardan. Kun borki, majmua pavilyonlarida ko'zlari yonib turgan, bir-biriga yordam berib mashg'ulot o'tayotgan yoshlarni uchratasiz. Ularning abjir harakatlaridan, mahoratlaridan dilingiz yayraydi, zavqingiz oshadi.

Abdulloh Ne'matov mazkur maskanning eng iqtidorli a'zolaridan. U ko'proq suv sportiga qiziqadi. Shu sababli, shahardagi suv sportiga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabida tahsil olmoqda. Murabbiylaridan o'zi sevgan sport turining sir-asrorlarini qunt bilan o'rganmoqda. Ayniqsa, yakka tartibda tajribali murabbiy Asilbek Abdumurodov bilan o'z mahoratini oshirib kelmoqda. Dastlab shahar va viloyat miqyosida kechgan turnirlarda imkoniyatini sinab kelgan Abdulloh nihoyat yaqinda katta maydonga chiqdi. Toshkent shahridagi «Saxovatsport servis» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli sport majmuasida suzish bo'yicha IV va V toifa guruhlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston ochiq chempionatida qatnashdi. Musobaqa yakuniga ko'ra, 100 metrga brass usulida suzish bo'yicha chempionlikni qo'lga kiritdi hamda O'zbekiston chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi. Ustozlarining, yaqinlarining umidini, ishonchini oqladi.

– Tan olishim kerak, raqiblarim juda kuchli ekan, – deydi Abdulloh hayajonlanib. – Ammo murabbiylarimiz menga buni ko'p ta'kidlagani sabab, butun imkoniyatimni ishga soldim. Natija esa barchamizni xursand qildi. Niyatim, endi xalqaro turnirlarda ham omadimni sinab ko'rmoqchiman.

Abdulloh Jizzax shahridagi 8-umumta'lim maktabining 5-sinfida o'qiydi. Sport bilan birga maktabdagi darslarini ham qoldirmaydi. Bu yerda ham imkon qadar ustozlarining minnatdorligini his qilishni istaydi.

Murabbiy Asilbek Abdumurodov mazkur musobaqada sport maktabining boshqa tarbiyalanuvchilari ham qatnashib, yuqori o'rinlarni egallashganligini ta'kidlab o'tdi. Xususan, Doston Quadratov 50 metrga erkin suzishda 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, Sharof Rashidov tumanidagi 36-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Ismoil Qobilov estafetali suzish bahsida 3-o'rinni egallabdi.

– Ismoilga so'nggi daqiqalarda biroz tezkorlik yetishmadi, – deydi murabbiy Asilbek Abdumurodov. – Unga musobaqadan so'ng xatolari ustida ishlash kerakligini aytdim. Bu safar bronza medal bilan cheklangan Ismoil kelgusi bahslarda ana shu kamchiliklarni bartaraf etsa, albatta, oltin medalga ham erishadi.

Shuningdek, maktabning Azizjon Ilhomov, Malikabdulaziz Ilhomov, Sardor Quadratov, Aziz Iskandarov, Akbarshoh O'ktamov, Ilyos Abdumurodov singari tirishqoq o'quvchilari ham musobaqaning sovrinli o'rinlariga loyiq, deb topildi.

Farhod ESHMO'MINOV

O'ZBEKISTON – UMUMIY UYIMIZ

**Do'st bilan obod uying,
Gar bo'lsa u vayrona ham.
Do'st qadam qo'ymas ekan,
Vayronadur koshona ham.**

Xalqimiz qadimdan mehmondo'st, bolajon el bo'lib kelgan. Yuragida

hatto dushmaniga ham yomonlikni ravo ko'rmagan. Millatlararo totuvlik va hamjihatlik o'zbekning qon-qoniga singib ketgan. Bir osmon ostida erkin va farovon hayot kechirish esa vatandoshlarimiz uchun shiorga aylangan. Andijon viloyati, Xonobod shahridagi

1-umumta'lim maktabida bugun turli millat vakillarining farzandlari ta'lim oladi. Kuni kecha ta'lim maskanida 2-«A», 4-«B» sinf o'quvchilari o'qituvchi Nodiraxon Ergasheva rahbarligida «O'zbekiston – umumiy uyimiz» mavzusida ma'naviy tadbir o'tkazdi. Dastlab ustoz kirish so'zi bilan tadbirning maqsadi haqida gapirib o'tdi.

Shundan so'ng, o'quvchilar bahoriy libosda karnay-sumay sadolari ostida zalga kirib keldi. Ular rus, koreys, hind, qirg'iz, tojik, turkman, ozarbayjon, uyg'ur kabi turli

millat raqslarini navbatma-navbat ijro etishdi. Shundan so'ng, o'quvchilar do'stlik, mehnatsevarlik, tinchlik mavzularida she'rlar o'qidi. Yigit va qizlar xorazmcha, qoraqalpog'cha va ukraincha raqslarni ijro etishganida, zalda gulduros qarsaklar tinmadi.

Tadbir so'nggida so'zga chiqqan shahar Xotin-qizlar qo'mitasi raisi M. Hoshimova, shahar xalq ta'limi bo'limi mudirasi R. Muhutdinova, maktab direktori M. Supayeva hamda mehnat faxriysi Lolaxon Ahmadbekovalar tadbirdan olgan taassurotlari haqida aytib o'tdi.

Umidaxon USMONOVA,
Niginaxon MO'MINJONOVA



BOQIY QADRIYAT

Xalqimizning ko'pgina urf-odat va an'analari, qadriyatlariga menga g'urur bag'ishlaydi. Nazarimda, ularning asosini insonlarning bir-birlariga bo'lgan mehr-oqibati, qadr-qimmatini tashkil etadi.

Shu kunlarda yurtimizdagi mahallalarda, umumta'lim maktablarida «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlab bayram tadbirlari o'tkazilmoqda. Bu ayyom biz yoshlarga ajdodlarimizni hurmat qilib yashashni o'rgatadi.

Xonadonimiz keksalar bilan fayzli, mahallamiz ular tufayli tartibli. Nuroniy bolalik chog'larida boshdan kechirgan kunlari haqida so'zlab berar ekanlar, bizlarga qanoatli bo'lmoqni, shukur qilmoqni o'rgatadilar.

Salomat SA'DULLAYEVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

GAP YOSHDA EMAS...

Uilyam Lorens Bregg eng yosh Nobel mukofoti sohibidir. Ingliz fizigi 1915-yil 25 yoshida ushbu e'tirofga sazovor bo'lgan.

Chingiz Aytmatov besh yoshida tarjimonlik qilib, qalam haqi olgan.

Nemis shoiri Gyote to'qqiz yoshida nemis, lotin va grek tillarida she'r yozgan.

AQSHlik Shirli Templ 4 yoshida kinoda suratga tushgan, 6 yoshida esa «Oskar» mukofotini olgan.

Raul Kapablanka – kubalik grossmeyster 4 yoshida shaxmatni o'rgangan, 14 yoshida chempion bo'lgan.

To'plovchi: Anvar MIRZAYEV

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Saqich turi				Tinish belgisi	Osmon, fazo
O'quvchi quroli	Uzum navi	Quyuc ovqat	Pilla tolasi	Meva suvi	Sayroqi tog' qushi
Musiqasi asbobi	Ikkinchi nom	Uy hayvoni	Belbog'	...	Uka
	Istak, niyat	100 yil			Zeb
	Son	Hassa		Asal	
Narsa saqlanadigan bino	Foydali hasharot			Uzum daraxti	

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

8

14-may 2018

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzilmiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 65247
Buyurtma - V 1611

Tahririyatga kelgan
barcha qo'lyozmalar tahrir
qilinadi, mualliflarga
qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushan-
ba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel. /faks:
(99871) 244-63-08